

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI FRAZEOLOGIK OLAMI TASVIRI  
TAHLILI

*Tursunov Mirzo Maxmudovich*

*BuxDU, Ingliz tilshunosligi kafedrasida dotsenti, f.f.f.d.(PhD);*

*Egamova Shahnoza Asrorovna*

*BuxDU, Lingvistika: ingliz tili mutaxassisligi 1-kurs magistranti*

*Annottatsiya:* Ushbu tezisdagi frazeologiya va frazeologik birlik tushunchasi, uning kelib chiqishi va xalq madaniy me'rosida tutgan o'rni, uning qay darajada o'rganilganligi tahlil qilingan. Shuningdek, ingliz va o'zbek tillari frazeologik olami tasviri tahlil qilingan bo'lib, har ikkala tilga xos iboralardan namunalar keltirilgan.

*Kalit so'zlar:* frazeologiya, frazeologik birikma, frazeologizmlar, frazeologik ma'no, leksik ma'no, frazeologik olam.

*Annotation:* this thesis analyzes the concept of phraseology and phraseological unit, its origin and role in the cultural norm of the people, to what extent it is studied. Also, the image of the phraseological world of English and Uzbek languages is analyzed, examples of expressions specific to both languages are presented.

*Keywords:* phraseology, phraseological combination, phraseologisms, phraseological meaning, lexical meaning, phraseological universe.

*Аннотация:* в данной тезис анализируется понятие фразеологии и фразеологической единицы, ее происхождение и роль в культурной норме народа, в какой степени она изучена. Также анализируется образ фразеологического мира английского и узбекского языков, приводятся примеры выражений, характерных для обоих языков.

*Ключевые слова:* фразеология, фразеологическое сочетание, фразеологизмы, фразеологическое значение, лексическое значение, фразеологический мир.

Avvalambor frazeologiya o'zi nima degan savolga javob izlaydigan bo'lsak, u tilshunoslikning alohida bir qismi bo'lib, fraza ya'ni iboralar, ularning tuzilishi, ma'nosi bilan shug'ullanadi. Frazeologiya fan sifatida shakllangandan beri ko'p vaqt o'tgani yo'q. Dunyo tilshunosligida olimlar XVIII asrdan boshlab frazeologik birliklarni o'rganishgan.<sup>1</sup> Frazeologiya dastavval stilistika fani tarkidida o'rganilgan. "Frazeologiya" atmasini esa, fanga ilk bor fransuz-shveysar tadqiqotchisi Sharl Balli(1865-1947) olib kirgan. Balli o'zining "Stilistika ocherki"(1905) va "Fransuz stilistikasi"(1909) asarlarida frazeologizmlarni o'rganib chiqqan. Rus tilshunosi Polivanov ilk bor frazeologiyani alohida fan sifatida o'rganish fikri bilan chiqqan. N.N.Amasova, A.B.Kunin ingliz, V.G.Gakk, Y.I.Retsker, Z.N.Levitlar fransuz, A.D.Rayxshteyn, I.I.Chernishova nemis hamda A.A.Potebnya, I.I.Sreznevskiy, L.A.Buxalovskiy, A. A.Shaxmatovlar o'z asarlarida rus frazeologiyasi masalalarini ko'rib chiqishgan.

<sup>1</sup> <https://audiobook.uz/blogs/news/frazeologik-iboralar-va-ularga-misollar>

O'zbek tilshunosligida frazeologiya sohasidagi tadqiqotlar o'tgan asrning 50-yillaridan boshlangan. O'zbek olimlaridan Sh.Rahmatullayev, K.Yusupov, H.G'ulomov, M.Siddiqova, X.Tursunova, A.Zohidov, A.E.Mamatov va M.M.Tursunovlar o'zbek frazeologiyasi masalalarini o'z ilmiy ushlarida tadqiq qilishgan. Tadqiqotchilarning frazeologiya sohasi bilan shug'ullanganiga endi bir necha yuz yil bo'lgan bo'lsada, frazeologik birliklarning yaralishi insoniyat tarixichalik qadimiydir. Bir tilning frazeologiyasini o'rganish orqali ushbu tilda so'zlashuvchi xalqning madaniyati, tarixi, urf-odatlar, fe'li to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish mumkin. "Xalq tarixi qanchalik boy bo'lsa, uning tiliga xos bo'lgan birliklar shunchalik yorqin va mazmunan ko'p qirrali bo'laveradi",- deb yozadi M.M.Tursunov.<sup>2</sup> Darhaqiqat, bir tilning frazeologik olami uning madaniyati haqidagi qimmatbaho manbadir. Ingliz tadqiqotchisi Raymond.V.Gibbsning ta'kidlashicha, insonlar kundalik turmush tarzida bir-biri bilan kamdan-kam hollarda badiiy tilda suhbat quradi va ushbu holatda fikrni, ayniqsa, mavhum g'oyalarni ifoda etishda turli ibora va maqollar yordamga keladi.<sup>3</sup> Shunday ekan, turli frazeologik birliklar so'zlovchining nutq uslubini bezovchi lingvistik bezaklar emas, balki, tilning ajralmas qismi bo'lib, ijtimoiy o'zaro munosabatni yengillashtiradi, matn uyg'unligini kuchaytiradi, va eng asosiysi, insonning anglatmoqchi bo'lgan fikrini ifoda etadi.

Keyingi yillarda frazeologiya tilshunoslikning keng o'rganilayotgan sohalaridan bo'lib, hozirga qadar frazeologizmlarning ma'no tabiati, hosil bo'lish usullari, o'zaro sinonimik, antonimik, variantdoshlik xususiyatlari; morfologik strukturasi, ularning gap tarkibidagi sintaktik vazifasi, baynalminal frazeologiya kabi masalalar yuzasidan qator ishlar amalga oshirilgan. Frazeologik birliklar ikki yoki undan ortiq so'zlarning barqaror bog'lanishidan hosil bo'ladi. Biroq frazeologik ma'no uning tarkibidagi so'zlarning leksik ma'nolari yig'indisidan kelib chiqmaydi, u umumiylik xususiyatiga ega.<sup>4</sup> Frazeologik ma'no bilan leksik ma'no o'rtasida umumiylik bo'lishi bilan birga bir nechta o'ziga xos belgilar mavjud. V.P.Jukovning fikricha, frazeologik birlikning mazmuniy mazmuniy tuzilishida frazeologik ma'noning birlashtiruvchilik belgilari alohida ajralib turadi. Bu belgilar frazeologik birliklar ma'nolarining tarkibiy elementi sifatida turli xil frazeologizmlarda mavjud bo'ladi.<sup>5</sup>

Ingliz va o'zbek tillarining frazeologik olamida tasvirida har ikkala til frazeologizmlari ham ushbu millatlarnig o'tmishi, madaniyati, millatga xos bo'lgan milliy-madaniy xususiyati, an'analari, hayot tarzini aks ettiradi. Har ikkala tilda ham frazeologik birliklarning aksariyati insonning ichki va tashqi olami bilan bog'liq faoliyati orqali shakllanadi. Shu sababdan ham bunday iboralar ifodalagan ma'noning zamirida inson va uning fe'l-atvori, yashash tarzi, o'y-fikrlari yotadi. Xalqning turmush tarziga aylangan oddiy ish harakatlar, marosimlar bilan bog'liq bo'lgan urf-adtlar keyinchalik frazeologizmga aylanishi mumkin va u o'zida to'laligicha shu millatning milly madaniyati va turmush tarzini ifoda etadi. Masalan, o'zbek tilidagi "qo'lga hina qo'ygan" iborasi salbiy ma'noda ishlatilib, "yalqov, erinchoq" degan ma'nolarni anglatadi va u marosimga bog'liq urf-odat bilan bog'liq. Frazeologik iboralar o'zbek xalqi turmushidagi turli voqea-hodisalarga guvoh bo'lish, kishilarning xilma-xil harakatlariga baho berish, tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning obrazli ifodalaridir. O'zbek millatiga xos bo'lgan iboralardan quyidagi namulalar turli ma'nolarni beradi va ushbu xalqning kundalik turmush tarzi bilan bog'liq: aravani quruq olib qochmoq- uddasidan

---

<sup>2</sup> M.M.Tursunov, monografiya, "Ingliz va o'zbek tillarida metaforik iboralarning lingvokognitiv tahlili", Buxoro, 2022.

<sup>3</sup> D.Geeraerts and H.Cuykens. The Oxford Handbook of Cogniive Linguistics. Oxford University Press, 2007.

<sup>4</sup> G.A.Shodiyeva . O'zbek frazeologizmlari strukturasi. Farg'ona, 2007.

<sup>5</sup> В.ПюЖуков В.П. Семантика фразеологических оборотов. – М.: Просвещение, 19

chiqa olkaydigan ish yoik narsa haqida ortiq darajada maqtanmoq; bir kesak tosh bilan ikki quyonni urmoq- ayni bir paytda ikki narsani ko'zlab ish tutmoq; og'ziga talqon solmoq- indamasdan jim turmoq; yeng ichida ish ko'rmoq- birovg'a bildirmasdan, sirli tarzda; yulduzni benarvon urmoq- epchil, uddaburon; xamirdan qil sug'urganday- osongina hal qilmoq; avra-astarini chiqarmoq-boshidan oxirigacha tekshirmoq. Ingliz tilida esa quyidagi iboralar ushbu xalqqa xos hisoblanadi: to have a finger in every pie- har narsaga aralashmoq, dead to the world-qattiq uyquga ketmoq, It's raining cats and dogs- jala quymoq, let the cat out of bag-sirni oshkor qilmoq<sup>6</sup>.

Atoqli o'zbek adibi O'.Hoshimovning dunyoning ishlari asarida yozuvchining boshidan kechirgan hayotiy voqea-hodisalar tasvirlangan bo'lib, unda xalq tilida amalda bo'lgan iboralar, ya'ni, frazeologik birliklardan unumli va o'z o'rnida foydalanilgan. Misol uchun, "Nima, buningni boshoda shoxi bormi?", yozuvchining otasining nomidan keltirilgan bu iborada "boshqalardan ajralib turuvchi" ma'nosi yotadi va u hamma ish qiladi-yu nega bu ishlamaydi mazmunini ifodalagan. Bundan tashqari, asarning turli o'rinlarida qo'llangan "ak-uka pildirpis bo'lib, in-inimizga kirib ketdik" iborasi jim bo'lib qoldik, "kun ko'rib, kuni ro'shnolik ko'rmagan" iborasi qiyinchiliklarni ko'p ko'rgan, qiynalib yashagan, "san ko'r-man ko'r bo'lib ketadi" iborasi esa tuzalib ketmoq ma'nolarini ifodalagan bo'lib, ular asar mazmunini yanada boyitgan.<sup>7</sup> Ingliz adbiyotida ham yozuvchilar turli frazeologizmlardan foydalanishgan bo'lib, ular asarning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Masalan, Jeyn Ostin asarida kelgan "I wish Jane Fairfax very well; but she tires me to death" gapidagi "wish somebody well" iborasi omad tilamoq ma'nosida, J.Golsvorsy keltirgan "You always wait to see which way the cat jumps" gapidagi "wait to see which way the cat jumps" iborasi voqealar rivojini kuzatib turmoq ma'nosini ifodalagan.<sup>8</sup>

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda shuni xulosa qilib aytish mumkinki, frazeologiya tilshunoslikda nisbatan yangi soha bo'lsada har qanday, jumladan, ingliz va o'zbek tillarida ham frazeologik birliklar xalq tarixi qadar qadimiy va ular o'z ichida shu xalqning o'tmishi, madaniyati, urf-odatlarini, yashash tarzini mujassamlashtiradi. Frazeologik birliklar, ayniqsa, oddiy so'zlar va so'z birikmalari bilan ifodalash qiyin bo'lgan tushunchalarni kengroq tarzda yoritib berishga xizmat qiladi, tilni boyitadi. Badiiy asarlarda qo'llanilgan turli iboralar esa, uning ta'sirchanligini orttiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. M.M.Tursunov, monografiya, "Ingliz va o'zbek tillarida metaforik iboralarning lingvokognitiv tahlili", Buxoro, 2022.
2. Mirzo Makhmudovich Tursunov. (2022). ANALYSIS OF SOME ENGLISH IDIOMS CONTAINING POPULAR PROPER NAMES. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 5, 62–67. Retrieved from <http://ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/98>

---

<sup>6</sup> Mirzo Makhmudovich Tursunov. (2022). ANALYSIS OF SOME ENGLISH IDIOMS CONTAINING POPULAR PROPER NAMES. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 5, 62–67. Retrieved from <http://ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/98>

<sup>7</sup> O'.Hoshimov. *Dunyoning ishlari*.-T.:Yangi asr avlodi,2015.

<sup>8</sup><https://cyberleninka.ru/article/n/the-usage-of-english-phraseological-units-and-their-functions/viewer>

3. Makhmudovich, T. M. ., & O'rinbekovna, U. M. . (2022). COMPARATIVE ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGY IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. IJTIMOYIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 46–49. Retrieved from <http://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/1154>
4. Tursunov Mirzo Makhmudovich, & Akhmedova Gulmira Okhunjonovna. (2022). Analysis of Conceptual Metaphors Used in British Politicians' Speeches. Eurasian Research Bulletin, 7, 43–48. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/1015>
5. Saidova, M. U. The problem of studying literary terms on figurative language. [https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0,5&cluster=9219256601546054307](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0,5&cluster=9219256601546054307)
6. Saidova, M. U. (2020). LEXICOGRAPHIC AND ETHYMOLOGICAL ANALYSIS OF THE CONCISE OXFORD DICTIONARY OF LITERARY TERMS BY. <https://namdu.researchcommons.org/cgi/viewcontent.cgi?article=2723&context=journal>
7. Umidullayevna, Saidova Mukhayyo. "SEMANTIC ANALYSIS OF ENGLISH POETIC TERMS IN LITERARY DICTIONARIES." RESEARCH AND EDUCATION 1.1 (2022): 38-46. <https://researchedu.org/index.php/re/article/view/682>
8. Saidova, M. U. (2019). THE STRUCTURAL COMPOSITION OF THE LITERARY TERMS IN LITERARY DICTIONARY" LITERARY TERMS AND LITERARY THEORY" BY JA CUDDON. Международный академический вестник, (1), 73-76. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=36875142>
9. Саидова, М. У. (2021). К. БОЛДИКНИНГ “АДАБИЁТШУНОСЛИК ТЕРМИНЛАРИНИНГ ҚИСҚАЧА ИЗОҲЛИ ОКСФОРД ЛУҒАТИ” ДАГИ ЯСАМА АДАБИЁТШУНОСЛИК ТЕРМИНЛАРИ ТАҲЛИЛИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(2). <https://tadqiqot.uz/index.php/art/article/view/3240>